

**OMON MUXTOR ROMANLARIDA OBRAZLILIK***Furqatjon Karimov**Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi  
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Omon Muxtor jahon adabiyotini ko'p o'qigan, yetarlicha tajriba to'plab Sharq an'analarini unutmagan holda badiiy asarlar yaratishiga guvohi bo'lamiz. "Ffu" romani 1993-1995-yillar oralig'ida yaratilgan bo'lib, adib uni rivoyat-roman deb izohlaydi. Hajmi juda ham kichik – 72 betdan iborat. Romanda aniq bir vaqt yoki makon tasvirlanmasa-da, undagi, milliy urf-odatlar tarixiylikini bildirib turibdi. Asar ertak, rivoyatga o'xshaydi, undagi voqealar rivoji, syujeti, kompozitsiyasi, obrazlari, asarning boshlanishi, voqealar rivoji, xulosa qismlarida xalq og'zaki ijodi unsurlari yaqqol kuzatiladi. Asarda sehr-jodu motivi qo'llangani, ijodkorga o'zining badiiy konsepsiyasini ifodalashda asosiy ro'l o'ynagan va romanning falsafiy mushohadakorligini ta'minlagan. Asar ishtirokchilari ham u qadar ko'p emas. "Sirdan qaraganda hozirgi davr adabiyoti eksperimental adabiyotdek taassurot qoldiradi. Haqiqatdan ham keyingi yillarda shunday asarlar vujudga keldiki, ularning zamirida yotgan adiblar niyatini maxsus tayyorgarliksiz anglash qiyin. Chunki ular an'anaviy usulda emas, G'arbning modernizm adabiyot atalmish yo'nalishida yozilgan. Ma'lumki bu tarzda adabiyotda obyektiv olam, voqelik, inson, uning xatti-harakatlari, u yashagan yoki yashayotgan jamiyat muhiti, mafkurasi yozuvchining tasvir obyekti bo'lmay, balki insonning unga munosabati, to'g'rirog'i uning tafakkur yo'nalishi asosiy obyekt sanaladi...Omon Muxtorning "Ffu" romani bunga yaqqol misoldir"<sup>1</sup>. Ushbu romanning qahramonlari quyidagilar:

Mulla Toshpo'lat – oddiy quruvchi.

Toshtemir – uning o'g'li.

Usta Mahmud – Toshtemirning bolalikdagi ustoz.

Nigor – Usta Mahmudning qizi.

Haydar maxsum – "aqlining yarmini" sotgan obraz

Ilyos – etikdo'z

Ilyos – shoir

Bundan tashqari Zulfizar bibi (Mulla Toshpo'latning xotini), va Abulfayz yoymachi, viloyat hokimi, ustalar ham ishtirok etadi.

Mulla Toshpo'lat – xotini o'lgan, ikki qizini turmushga bergan, yolg'iz o'g'li Toshtemir bilan yashaydi. Oddiy quruvchilik bilan halol mehnat qilib, ota-bobolarining kasbini, urf-odati, udumini davom ettirayotgan inson. Uning ajdodlari ham usta bo'lgan, o'zi ham usta, endi bu an'anani o'g'li ham davom ettirishini xohlayadi, lekin o'g'li otasining istaklariga beparvo, loqayd.

<sup>1</sup> Каримов Ҳақимжон. Ўзбек романларининг тараққиёт тамойиллари. – Т., 2008. –76-бет

Toshtemir – otasiga o‘xshamagan. U yoshlikda hunar o‘rgangan, lekin hozir uyda hech bir ish qilmaydi, o‘rganmaydi, hatto otasi bilan ham bemalol gaplashmaydi. Otasi bunga sabab onasidan ajralishimikan deb gumon qiladi. Toshtemir bor yo‘g‘i oltita so‘z ishlatadi. Oh-oh – mamnun bo‘lsa, Iy-y-y – ajablansa, Ffu-Ffu – yoqmasa, norozi bo‘lsa.

Asar davomida Toshtemirning to‘rt xil o‘zgarishini kuzatamiz.

1. Loqayd, beparvo.

2. Aqlli, ishbilarmon, lekin xudbin, maishatga, hoyu-havasga o‘ch. Hatto shohlikka da’vo qiluvchi shaxs.

3. Aqlli, avvalgi ishlari gunoh ekanligini o‘ylovchi, zohid shaxs.

4. Nihoyat, o‘zligini anglagan, komillikka erishayotgan, yashashdan maqsadi nima ekanligini anglagan shaxs.

Mulla Toshpo‘lat garchi unga mulla ta’rifi berilgan bo‘lsa-da asli oddiy quruvchi. Haydar maxsum bilan suhbatda bir necha bor “o‘qimaganligini” aytib o‘tadi. U insofli, diyonatli o‘z farzandining kelajagi uchun qayg‘uradigan haqiqiy o‘zbek millatiga xos ota. U o‘g‘lining taqdiri kelajagini o‘ylab bozorda o‘z aqlini yarmini sotayotgan Haydar maxsumdan o‘g‘li uchun aql sotib oladi. Va bu ishni asar davomida jami uch marta takrorlaydi.

Toshtemirning asardagi to‘rt xil o‘zgarishiga e’tibor qaratsak.

Asar boshida Toshtemir juda beparvo, hech narsaga qiziqmaydigan, biror hunarni boshini tutishni xohlamaydigan shaklda tasvirlanadi. Otasi bozordan unga bir insonning yarim aqlini sotib olgach, hovlida bir to‘ti paydo bo‘ladi va u Toshtemirning kiftiga qanotlarini tekizib o‘tadi. Shu vaqtdan so‘ng uch kun uning boshi og‘irlashib, tobi qochadi.

Ikkinchi o‘zgarish to‘ti paydo bo‘lgan vaqtdan boshlanadi. Toshtemir endi bunday yashab bo‘lmasligi, chiroyli imorat qurib, xonaning to‘rt tarafiga chiroyli to‘tilarni joylashtirish, otasini yetti qavat ko‘rpachada rohat farog‘atda yashashiga mas’ul ekanini sezadi va ishga kirishadi. Avval bir muddat ma’lum guruhlarda ishlab, so‘ng o‘zi keyinchalik guruh tuzadi. Eski uyining yonidan ulkan qasr qurdiradi. Hovlida qullar, xizmatkorlar ko‘payadi. O‘zi ham sekin-sekin guruhlarni ko‘paytirib avval o‘z hududini, keyinchalik butun viloyatni egallaydi. Shundan boshlab u aqlli, lekin hukmfarmon, xudbinlik yo‘liga o‘tadi. Boylik ko‘zlarini ko‘r qiladi, qo‘li qonga belanadi, aysh-ishrat bilan kun kechiradi, hatto shoh bo‘lishni o‘ylab qoladi.

Boy, hukmdorlikka erishgan Toshtemirdan hamma qo‘rqar faqat uch kishi bundan mustasno edi.

1. Usta Mahmud

2. Mamlakat shohi

3. Otasi Mulla Toshpo‘lat

U Usta Mahmudni o‘z guruhiga qo‘shilishini aytadi, ammo usta bunga rozi bo‘lmagach, Toshtemirning odamlari tomonidan kaltaklanadi. Buning evaziga u yoqtirgan qizi Nigorning qahriga, yomon ko‘rib qolishiga sababchi bo‘ladi.

Uchinchi o'zgarish, Mulla Toshpo'lat o'g'lining boy-badavlat, lekin xudbin bo'lgani yoqmaydi. Agar o'zgarish rost bo'lsa deb, Haydar Maxsumning oldiga borib aqlining qolgan yarmini ham sotib olishni o'ylaydi va bu maqsadiga erishadi ham. Lekin bu o'zgarish boshqacha tus oladi. Mamlakat shohining uni o'z oldiga chaqirib ogohlantirishidan so'ng, bir kuni bozorda uni boshiga qop solib olib ketishadi. Yonidagi qirq yigiti to'rt kishiga bas kelolmay qochib qolishadi. Zindonda yotgan Toshtemir dor tagidan bo'yniga sirtmoq solingandan keyin, baxtli bir tasodif tufayli, shohning qizi o'g'il farzandli bo'lgach, aybi afv etilib qo'yib yuboriladi. Nomidan, dovrug'idan, boyligidan ayrilgan Toshtemir uyga qaytgach, birin-ketin yana odamlar uning atrofida yig'ila boshlaydi. Ammo Toshtemir endi bu ishlarni boshqa qilmasligini aytadi va kimsasiz g'orga bosh olib ketadi. U o'z davrida ustozni Usta Mahmudni o'ziga qo'shilishini aytgan, bu ishni qilmagan ustozini jazolagan edi. Ustozni esa uni zindonband etilganini bilgach, ahvoli og'irlashib vafot etadi. Yoshlikda yoqtirgan ustaning qizi Nigorni qalbida unga nisbatan nafrat tuyg'usi paydo bo'ladi. Toshtemir esa Nigorning ko'nglini olish uchun harchand urinsa ham bu narsa ro'y bermaydi.

Zohidlik yo'lini tutgan Toshtemir har kuni faqat bir burda non va suv bilan qanoatlanib, umr kechiradi. Otasi Toshpo'lat bozordan olib kelgan narsalarini ham yemaydi.

To'rtinchi o'zgarish Toshpo'lat Haydar Maxsumdan qolgan qutgan narsa so'raydi. Shundan boshlab Toshtemir ulkan bino qura boshlaydi. Keyinchalik Usta Mahmudning ham shogirdlari kelib unga qo'shiladi. Asar yakunida Toshpo'lat o'g'lining Nigor bilan tosh ustida gaplashib o'tirganini ko'rib undan rozilik tuyadi.

Biz Toshpo'lat obrazi orqali farzandi uchun barcha narsaga tayyor otani ko'ramiz.

Romanning yutuqlariga kelsak, uning shunday sirli, sehrli xalq ertaklariga yaqinligi yozuvchining badiiy konsepsiyasini ifodalashda muhim rol o'ynagan. Roman tasavvuf bilan bog'liq. Inson dunyoga kelib, o'zidan biror ilm qoldirish kerak. Chunki boylik, mansab, shuhrat, hokimiyat bu o'tkinchi narsalar. Buni Toshtemirning shoh farmoni bilan qo'lga olinib, zindonga solinishi va uy-joylarini buzib, butun boyliklari bilan yo'q bo'lishi, olib ketilishi misolida ko'rsak bo'ladi. Unda hech narsa qolmadi, faqat o'z ko'nglidan bo'lak. Qasr – bu Toshtemir uchun ko'ngil. Nigor uchun qurilayotgan ishq qasri. Bu bilan yozuvchi boylikka, mansabga ruju qo'ymaslikni, muhabbatgina abadiy qolishi va u insonni yetuklikka yetkazishini aytmoqchi bo'lgan.

Mamlakat podshohi, bizningcha, bu – HAQ. Toshtemirning borligi, yo'qligi unga bog'liq. Ogohlantirish beradi.

Bundan tashqari asarda ko'plab qaytariqlar, Muqimiy va Uvaysiydan she'rlarning berilishi asarning jozibadorligini oshiradi. Omon Muxtor romanlarining deyarli barchasida epigrafadan foydalanadi. Modernistik adabiyot bo'lgani uchun kitobxonga asar g'oyasini ochib berish uchun epigrafadan foydalanadi. Yozuvchi bo'lgan, bo'layotgan va balki bo'ladigan voqealarni ta'riflaydi.

Omon Muxtor romanlarining aksari badiiy, ilmiy tadqiqotga yaqin bo'lib, chuqur mushohada yuritilsa, bizga notabiiy tuyilgan ifoda, mavzu, katta uslub orqali o'zimiz,

o'zligimiz, Sharq tafakkuri badiiy inkishof etilganini anglaymiz. Voqelikning xuddi shunday inson va koinot, inson va jamiyat nuqtayi nazaridan "notabiiy" badiiy tasvir vositalari orqali badiiy ifodalanishi o'zbek romanchiligi tasnifidagi noan'anaviy romanlar tamoyilini ochib beradi, desak adashmaymiz.

O'zbek romanchiligida noan'anaviy roman janrining shakllanishida o'z o'rnini bor. Omon Muxtor o'zining "badiiy ta'limot"larning zamiri nimada, ularning kelajagi qanday?"- degan savolga javob izlab, yozuvchining o'ziga xos uslubini o'rganish maqsadida uni tahlil qilar ekanmiz, bu romanlarida nazm va nasrning uyg'unlashib ketgani, uning his-tuyg'ulari, hayot haqidagi falsafiy mushohadalari, o'y-xayollari lirizm bilan sug'orilganini ko'ramiz.

Davr o'tmoqda, zamon o'zgarmoqda. Kechagi shov-shuvga sabab bo'lgan asar bugun o'quvchini qoniqtirmasligi mumkin. Bu bilan biz aslo vaqt o'tishi bilan har qanday asar eskiradi, iste'moldan chiqadi, demoqchi emasmiz. Aksincha, badiiy asarning haqiqiy qiymatini ba'zan vaqt masofasi ham belgilaydi.

Roman tafakkuri taklif etgan falsafiy bahsda o'quvchi tayyor bo'lmagan aksar hollarda shunday jarayon kechishini Prust, Joys, Kafka romanlarining taqdiridan ham anglash mumkin.

Yozuvchining "Ming bir qiyofa" romanining tahliliga e'tibor qaratsak.

"Kim o'qisin-kim o'qimasin, ochig'ini aytishim kerak: bu – xayoliymi, falsafiyimi, shunaqa bir asar!

Albatta, yozuvchi har qanday asarda o'zi kuzatgan – eshitgan, ko'rgan hayot haqiqatlarini aks ettiradi. Lekin baribir, bu asar ko'proq xayol mahsuli; men hayotdagi aniq voqealar, odamlarni – bo'yoq berib, umumlashtirib yuborishga harakat qilganman.

Asardagi hikoyatlarga, asosan, har xil odamlar uchraganidan, kimgadir ular bir-biriga deyarli bog'liq emasdek tuyilishi mumkin. Ammo ziyrak o'quvchi, nega uch hikoyat yaxlit asar deb atalgani, ma'no va mazmun nimadan iborat ekanligini o'zi ilg'ab, oladi deb o'ylayman.

Yana bir gap. Ushbu asarni barcha-dunyoda bo'lgan, bor, tug'ilajak eng go'zal insonlarga bag'ishladim... ”<sup>1</sup>

"Ming bir qiyofaning asosiy syujet chizig'i iste'dodli shoir Abdulla Hakim, Burhon Sharif, Sadirjon va Nasriddin kabi obrazlar hayoti bo'ylab o'tadi. Asarda Abdulla Hakim bosh qahramondir.

Uning "dunyosi va bu dunyosi asarda voqealar silsilasida rivojlantirilib, tasvirlab boriladi. Burhon Sharif, Sadirjon va Nasriddin kabilar esa asosiy obrazlar hisoblanadi. Ularning bu dunyosidan asarda lavhalar chiziladi. Shuningdek, asarning yordamchi obrazlariga Halima, Gulxumor, Botir Oppoqov, Kabirov, Rahim ikkinchi, G'ulomjon va uch kishi – bo'y basti liliputdan sal kattaroq, qarimsiq-ko'sa, qosh-kiprigini ilg'ash qiyin bo'lgan, boshi ustarada taqir qirilgan kimsa ... cho'tir g'ilay bir zot" kabilarni ko'rsatish mumkin.

<sup>1</sup> Omon Muxtor. Ming bir qiyofa. – T.: Sharq, 1994. 3- bet

Romanda 3ta hikoyat mavjud.

Birinchi, hikoyat 4 manzara, qolgan ikki hikoyat esa yakka manzaralar chizgisi asosida qurilgan. Bular da 1-hikoyatdagi 1-manzara "Tutqun" da Abdulla Hakimning korchalonlar qo'lida asirdalik kechmishi, uning oldingi hayoti va o'limi voqealari tasvirlab beriladi ("Chinor" Akbarali taqdiriga o'xshash).

Jamiyatda har xil maqsad va maslak yo'lida yashayotgan turli toifaga mansub kishilar borki, ular orasida boyluk va martabaga ega bo'lish uchun, o'z istaklarini amalga oshirishda inson hayotiga xavf solishdan tap tortmaydiganlar ham uchrab turadi. Bundaylar o'z rejalarini amalga oshirishda inson hayotiga xavf solishdan ham qaytmaydilar. Bunday to'dalarning ashaddiy dushmani haqiqatparvar va halol kishilardir.

Asarda tasvirlangan qarimsiq-ko'sa, qosh-kiprigi rangsiz, sochi ustarada qirilgan kimsa cho'tir, g'ilay kishi obrazlari hayotda kelajak uchun yaxshi nom qoldirmay, qing'ir - qiyshiq ishlari bilan ko'pchilikning nafratiga sababchi bo'lgan to'dalarning timsoli sifatida badiiy talqin qilingan. Ularga qarshi kurashuvchilarning timsoliy qiyofasi esa Burhon Sharif va Abdulla Hakim obrazlarida mujassamlashtirilgan. Inson dunyoga bir marta keladi, ana shu imkoniyatdan har kim o'zicha foydalanadi. Deylik, birovlar o'zlarining ezgu ishlari bilan yaxshi nom qoldirib, inson degan sharaflilik nomga ega bo'lsa, ba'zilar yovuzliklari bilan odamzodga isnod keltirishadi. Asarda ana shu muammoga ham e'tibor qaratilgan. Xususan, Abdulla Hakim o'zga bir shaxsga qiyofadosh, ya'ni o'xshash bo'lgani uchun uning o'rniga vahshiylarcha o'ldirib yuborishadi. Aslida esa uning hech qanday aybi ham, zarracha gunohi ham yo'q edi. U o'zining ana shu qisqa hayoti davomida biror marta ham yolg'on gapirmagan, kishining haqqiga ko'z olaytirmagan, xiyonat ko'chasidan yurmagan, o'g'rilik nimaligini bilmagan, begona ayollarga hirs bilan qaramagan pokiza odam edi. Bunday olib qaraganda, musicha-yu beozor va begunoh shoir. Yozuvchi uni har qanday illatlardan holi qilib tasvirlagan.

U bu dunyoda yakka yolg'iz, uy-joysiz, qorni to'yib ovqat yemay, usti ham yupun holda yashagan. Buning ustiga muhabbat borasida ham omadi chopgan emas. U bu yorug' dunyoda rohatdan ko'ra azob-uqubatni ko'p ko'rgan.

Yozuvchi bu dunyoda ko'p takrorlanadigan jannatiy odamning qiyomat kunidagi azo-uqubatlari, ahvolini tasvirlaydi. Birovning, ya'ni Burxon Sharifning nomi bilan o'ldirilgan va dafn etilgan Abdulla Hakim u dunyoda o'zi uchun javob beradi. Ya'ni bu dunyodan birov uchun narigi dunyoga rixlat qilgan bo'lsa-da, u dunyoda o'zi uchun hisob beradi. Natijada do'zax azobini ko'rib, og'ir jazoga muhtalo etiladi. So'ngra jannatga, yashil vodiya o'tadi.

Uning gunohi bu dunyodalik vaqtida aroq ichganligi va muhabbatda omadi yurishmaganligi bois tushkun kayfiyatda tirik murdadek yashaganligi, unga berilgan imkoniyatlardan foydalanmay dunyo zavq va shavqini unutilganligi, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan befarq bo'lganligi, qolaversa yolg'iz o'zi umrguzaronlik qilib yolg'iz yashab yurganligi, o'zligini anglab olmaganligi uchun jazolanadi.

Kitobxonda yozuvchi bu bilan nima demoqchi degan savol tug'iladi. Bizningcha, adib insonga Ollohga shukr qilishni ham bilish kerak, demoqchi. Olloh sinovlariga

chidash bilan birgalikda inson o'tgan vaqti uchun emas, kelgusida keladigan daqiqa tashvishida ham yashashi kerak. Zero, umrning har bir daqiqasi g'animatligini o'quvchiga eslatib qo'yishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Hikoyada tasvirlanishicha, safardan qaytib kelgan Burhon Sharif Abdulla Hakimning qabriga yodgorlik o'rnatadi. O'zi uchun jon bergan bu begunoh kishining ruhi oldida abadul-abad qarzdor ekanligini o'ylab, uning nomini abadiylashtirish choralarini izlaydi.

Ikkinchi, "Parvoz"da esa Abdulla Hakimning tanidan ajrab chiqqan ruhi, jasadini qabrga qo'ymagunlaricha undan ajrolmay, o'z jasadini ta'qib qilib yurganligi manzarasi chiziladi.

Asardagi ikkinchi hikoya mana shu niyatning amalga oshmay qolganligini tasvirlovchi lavha bilan boshlanadi. Yozuvchi bu hikoyasiga "Olisdagi odam" deb sarlavha qo'ygan. Lekin bu hikoyada tasvirlangan voqealar avvalgi hikoyasidagi syujet tizimining bevosita davomi emas, ya'ni har ikki hikoya voqealari bir-birini to'ldirmaydi. Asarda butunlay yangi tasvir hukmronlik qiladi. Asarning o'q chizig'i ham boshqa yo'nalish bo'ylab boradi. Bunda Sadirjon va uning sevgilisi Gulxumor taqdiri bilan zamon ruhining mushtarak bir uyg'unligining badiiy ifodasini ko'ramiz. Sadirjon shifokor va oshiq. Asarning boshidan oxirigacha u shundayligicha qoladi. O'z va o'zgalar hayoti hamda qismati uchun hech narsa qilmaydi. Tasvirdagi voqealar uning xotirasi orqali ro'yobga chiqadi. Gulxumor esa Sho'ro siyosatining illatini ayovsiz fosh etuvchi obraz. U "Tarix madaniyati" deb nomlangan bir tashkilotda ishlaydi. Sho'rolar hukumati siyosati davrida milliy qadriyatlar, urf-odatlar, milliy an'ana va ma'naviy boyliklar imkon darajasida yo'q qilinishiga mahkum etilgan edi. Bunga asosan machitlar, madrasalar, avliyolar qabri, ziyoratgoh joylarning buzilishi ota-bobolarimiz suv ichgan muqaddas chashmalar-u, zilol suvli quduqlarning yo'q qilinishi uchun savobsiz va manqurt kishilar qanday xizmat qilganligi qanchalik "jonbozlik" ko'rsatganligi Gulxumor obrazi orqali yorqin badiiy bo'yoqlarda tasvirlangan. Garchi bu mavzu yangilik bo'lmasa-da, yozuvchi yangi badiiy shakl va yangi poetik talqinda bu mavzuni o'ziga xos tarzda yoritadiki, adib mahoratini namoyish etadigan o'rinlar ko'p uchraydi. Asarda bugungi kunda jamiyatdan uzilib qolgan, uzoq, sahroda joylashgan 9 qavatli marmar bino faoliyatini davom ettirayotganligi tasvirlangan bo'lsa-da, o'sha 9 qavatli bino ichidagilar o'zlarini bamisoli jamiyatning fidoyilari qilib ko'rsatadilar. Aslida esa ularning zamoni allaqachonlar o'tib ketganligini adib ochiq oydin ko'rsatib bergan. Chunki bu bino shahardan bir kunda yo'q bo'lib qolgan. Lekin shahar markazidagi shunday mahobatli bu binoning birdaniga yo'q bo'lib qolganligi Sadirjondan boshqaga bilingani yo'q. Chunki bu binoda faoliyat ko'rsatayotganlarning bugungi jamiyat hayotida o'rni yo'q edi. Sadirjonning iztiroblari bu bino va unda faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotning g'oyib bo'lganligi uchun emas, balki sevgilisi Gulxumordan ajralib qolganligi uchun yuragini kemirayotgan ayriliqning isyoni edi. Oradan ancha vaqt o'tgach asarda tasvirlangan voqealar silsilasida yana Burhon Sharif paydo bo'ldi. Gulxumorning qo'liga Abdulla Hakimning she'rlar daftari tushib qolgan edi. Ana shu daftardagi she'rlarni yodlab yurgan Sadirjonga Burhon Sharif

yordam qo‘lini cho‘zdi. Natijada sevgilisining visoliga yetishishdan umidini uzayozgan Sadirjon u bilan diydorlashadi. Ammo Vatan, yurt, millat, e‘tiqod, muhabbat va sadoqat kabi insoniy tuyg‘ulardan tamomila mosuvo bo‘lgan bu qiz yigitning dard-u alamlari va iztiroblaridan ko‘ra o‘zi uchun muqaddas deb bilgani – o‘sha 9 qavatli binodagi tor muhit qobig‘ini yorib chiqolmaydi. Yozuvchi man shunday obrazni tasvirlash orqali o‘z millati dardidan ko‘ra o‘z shaxsiy manfaatlarni ustun qo‘ygan manqurt kimsalarni fosh etish bilan birga bugungi kun o‘quvchisini ham ma‘naviy kamollikka va ogohlikka chaqiradi.

Uchinchi, “Go‘r azobi” va to‘rtinchi “So‘nggi kun” manzaralarida Abdulla Hakimning jasadi qabrga qo‘yilgan paytdan qiyomatgacha bo‘lgan vaqtgacha kutishi, ya‘ni Barxaz davri (uzoq davr) atalmish vaqt oralig‘i voqealari va bu davrda farishtalar (Munkar Nakir) bilan qilgan savol javoblari, shuningdek, qiyomat kuni mashhargohdan to‘g‘ri do‘zaxga ravona bo‘lganligi (A.Oripov “Jannatga yo‘l”), so‘nggi gunohlariga yarasha jazoni o‘tagach, Foniyy dunyoda qilgan yaxshiliklari uchun jannatga ketganligi voqealari tasvirlanadi.

Romanning birinchi hikoyatida Abdulla Hakimning foniyy dunyodagi fojeali hayoti va boqiy dunyoda qilgan gunohlari uchun bir oz muddat jazoni o‘tashi, so‘ng savob ishlari uchun mukofotlangani, jannatda rohat-farog‘atda yashashga hukm etilganligi voqealari tasvirlanadi.

Shu bilan Abdulla Hakim romanda boshqa ko‘rinish bermaydi. Faqat romanning katta qismi hisoblangan “Olisdagi odam” va “Afandining bolaligi” kabi hikoyatlarining ayrim o‘rinlarida Burhon Sharif, Halima va Sadirjonlar tomonidan eslanadi, xotirlanadi. Shuningdek, bu hikoyatlarda Abdulla Hakimning asarlari – she‘rlari va nasriy “uzundi o‘ylari” muallif tomonidan ochiqdan ochiq o‘quvchiga havola qilinadi.

Abdulla Hakim she‘rlarining asarda berilishi nasr va she‘r uyg‘unligi ta‘minlagan. Asarda shoirning sevgi, ona, yer, Vatan va Nasriddin Afandi haqida yozilgan she‘rlari o‘rin olgan.

Romanning ikkinchi “Olisdagi odam” hikoyatining syujetida Sadirjon faol ishtirok etadi. Unda Sadirjon Gulxumor ismli qizni sevib qolishi va sevgilisining muhabbatda beburdlik qilib, mansab, nafs qurboniga aylanishi manzaralari chiziladi.

Uchinchi hikoyat “Afandining bolaligi”da esa, Nasriddinning bolaligi, uning hayot so‘qmoqlarining turli yo‘llarini bosib o‘tganligi manzaralari tasvirlanadi.

“...Adabiyotda an‘ana bo‘lib kelgan ijobiy va salbiy qahramon tushunchalaridan kechdim, - deydi yozuvchi. Insonning o‘zida hamma ezgulik va yovuzlik mujassam, degan qadim Sharq falsafasiga tayandim. Mana eslasangiz “Ming bir qiyofada” Abdulla Hakimning gunohlari bor va ezgu ishlari ham ko‘p. Burhon Sharif ham shunday. Hech bir qahramon yuz foiz salbiy ham ijobiy ham emas”<sup>1</sup>.

Uchinchi hikoya esa o‘z navbatida Burhon Sharif bilan Sadirjonlarning Abdulla Hakim qismati va ijodini yodga olishlari tasviri bilan boshlanadi. U chinakam ijodkor haqiqiy iste‘dod sohibi ekanligi tan olinadi. Endi Burhon Sharif asardagi birinchi

<sup>1</sup> Омон Мухтор. Узун йўлақдаги икки киши. Т.: Ўзбекистон, 2011.– 418-бет

hikoyada bergan va'dasining ustidan chiqishi uchun fursat kelganligini kitobxon sezadi. Lekin asar oxirida og'ir betob bo'lib qolgan Burhon Sharif o'zining ayblarini bo'yniga oladi. Insonning hamisha bir yelkasida Rahmon yursa, ikkinchi kiftida Shayton yuradi deb naql qiladilar. Burhon Sharif ham Xudoning bir bandasi, boshqa odamlarga o'xshab u ham xato qilishi, gunoh qilishi turgan gap. Uning qalbi ham xudbinliklardan xoli emas. Shu bois Abdulla Hakimning sevgisi bilan birga yashagan. Burhon Sharif marhumdan o'z xotinini qizg'anib o'zi uchun jonini ham ayamagan kishining qabri ustida bergan va'dasini bajarmaydi. Natijada uzoq yillar unitilgan kishini o'z o'limi oldidan eslab, qilgan ishlarining noto'g'riligini o'ylab, vijdon azoblarida qiynalib, o'z xatolarini garchi kechroq bo'lsa-da, anglab yetib, o'zining afsuslanayotganini Sadirjonga bildiradi. Ana shu bilan biroz bo'lsa-da, vijdoni oldida poklab ham oladi.

Asarda keltirilgan Abdulla Hakim daftaridan ko'chirmadek kiritilgan Afandi latifalari, Nasriddin Afandi haqidagi she'rlar rivoyatlar romanga o'zgacha ruh,joziba bergan. Darhaqiqat, asar qahramonlari Abdulla Hakim ham, Burhon Sharif ham,adabiyotimizda odat tusiga kirgan na "ijobiy" na "salbiy" qahramonlarning birontasiga o'xshamaydi. Ular bir paytning o'zida xokisor, zabun, notavon, ham fidoyi-jasur, ham gunohkor-qusurli, ham savob qilgan odamlar. Lekin shunisi ham borki, "ijobiy" hamda "salbiy" tushunchalar ongimizga o'tirishib qolgani uchunmi beixtiyor ularni "ijobiy" obrazlar deb ketaveramiz. Va ular yo'l qo'ygan xatolarni,bo'lishi kerak tabiiy bir holdek qabul qilamiz.

Aslida, tushunishimizcha, hech qaysi odam "Oqdan" ham "oq", "qoradan" ham "qora" bo'lishi mumkin emas. Bu g'aroyib tabiat yigitlar shunday bir davrda, muhitda yashaydiki, ulardan, asosan, Abdulla Hakimga hayot aslo kulib boqmaydi, otasiz o'sdi (otasini bekorga qamab yo'q qilib yuboradilar) keyin validasidan ham ayrildi (omad kulib boqmagan yigit).

Butun umr kun ko'rish uchun quldek ishlab, ochlik yupunlikda, g'ariblikda kechdi. (Shu sabab korchalonlar qo'liga tushdi.)

U – inson shaxsi, erki toptalgan, ilohiy, insoniy qadriyatlar, imon-e'tiqodi oyoqosti qilingan, xalqimiz tabiatiga, ruhiyatiga begona dahriy e'tiqod xuruji hammayoqni tutgan, dahriylik g'olib kelgan zamon farzandi. Bunday sharoitda u o'zining vijdoniy erki, shaxsiy baxti, muhabbati uchun kurashmadi, kurasholmadi.

Ko'ngil qo'ygan qizi onasiga ma'qul tushmagani uchun undan o'zini tortdi, ayni paytda qalbida ayrim boqiy insoniy tuyg'ularni saqlab qoladi – qator yaxshi she'rlar yozadi.

Nasriddin Afandi bolaligi haqida jiddiy asar yaratdi. Ammo ularni chiqarish uchun o'zini o'tga-cho'qqa urmadi, buni be'mani mashg'ulot o'zi uchun or sanadi. U umrida bir marta mardlik, fidoyilik ko'rsatdi, yaqin odami – haqiqat, adolat yo'lida kurashayotgan do'sti uchun hayotini, jonini fido etdi. Ammo do'sti bu jasoratning qadriga yetmadi.

Shu tariqa Abdulla Hakim bu dunyoda bir navi yashab o'tdi, baholi qudrat o'zgalarga yaxshilik qilmoqchi bo'ldi. Afsus tirikligida qadr topmadi, uni qiynab, yovuzlarcha o'ldirishdi, ruhi sarson-sargardon bo'ldi; hatto o'z nomi qolib, do'stining



nomi bilan qabriga kirdi. Bu syujet bizga Aqsad Muxtorning “Chinor” romanidagi Akbarali voqeasini yodga soladi. Bu dunyoda ko‘rguliklar yetmaganday loqaydligi, sustkashligi, bu dunyodga kelib odamday yashab o‘tmagani, imon – e’tiqodda sobit turmagani uchun avval lahadda jazo oladi, so‘ng qiyomatda.

Shoir bu “haqsizlik” lardan boshida ajablendi. Shunda farishtalar gunohini to‘kib soladilar.

“...Sen hammani qayoqlargadir chorlab, hammaga gap o‘rgatgning kelardi. Shoirman, deb baqirib-chaqirishni kasb qilganding. Ammo, men o‘zim aslida kimman, inson bo‘lib nimalarga erishdim-u nimalarga erishmadim, degan gap ba’zan hayolingdan ham o‘tmasdi. Holbuki, inson uchun o‘z-o‘zini bilish, o‘zining ahvoliga tushunib yetish eng yuksak darajadir”.

“..., Omon Muxtor romanlari poetikasini atroflicha chuqur tadqiq etish orqali adabiyotshunosligimiz, adabiy tanqidchiligimiz oldidagi ko‘plab chigal masalalarni oydinlashtirishimiz mumkindek ko‘rinadi”.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimov Hakimjon. O‘zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari. – T., 2008. – 76-bet
2. Omon Muxtor. Uzun yo‘lakdagi ikki kishi. T.: O‘zbekiston, 2011.– 418-bet
3. Omon Muxtor. Ming bir qiyofa. – T.: Sharq, 1994. 3- bet
4. Normatov.U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. – 229 b.